

DAVLAT SHAKLLARI MAVZUSINI O‘QITISHNING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI

Xamrayeva Dildora Atamuratovna

Navoiy viloyati yuridik texnikumi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada davlatlarning boshqaruv shakli, ma’muriy-hududiy tuzilish shakllari, hamda siyosiy hokimiyatni boshqarish jarayonida vujudga keladigan va rivojlanadigan asosiy qonuniyatlar, ularning mohiyati, funksiyalariyalarining o‘ziga xos xususiyatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: monarxiya, respublika, unitar, federativ, konfederativ, parlamentar respublika va monarxiya, teokratik monarxiya, demokratik va nodemokratik siyosiy rejim va boshqalar.

Davlat ham, huquq ham o‘ta murakkab, serqirra ijtimoiy hodisalar bo‘lganligi bois insoniyat azaldan ushbu sirli fenomenlarning ma’no-mazmunini anglashga jiddiy qiziqish bildirib keladi. Zero, davlat shakli davlat yo‘li bilan uyushgan jamiyatda davlat hokimiyatini kim tomonidan amalga oshirilishini, uning tuzilishi qanday mezonla asosiga qurilganligini hamda davlat boshqaruvida demokratizmning qay darajada qaror topganligini belgilaydi.

Bugun jamiyatimizda ro‘y berayotgan o‘zgarishlar bizni davlat va huquq hodisalariga oid ko‘pgina tushuncha va atamalarni, xususan davlat shakllari tushunchalarini qayta idrok etish hamda baholashga majbur etadi.

Davlat shakllari mavzuni o‘qitish borasida biz oldimizga muayyan vazifalarni qo‘yadi:

birinchidan , davlat shakllari yuzasidan nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarni rivojlantirish;

ikkinchidan, pedagogik va kasbiy bilimlarga asoslangan holda o‘quv-uslubiy faoliyatini takomillashtirishga nisbatan innovatsion yondashuv mativatsiyasini shakllantirish;

uchinchidan, professional ta’lim muassasalarida kreativ yondashish ko‘nikmalarini rivojlantirish;

to‘rtinchidan, fanning ilmiy-metodik masalalari bo‘yicha tegishli adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar, internet v elektron ta’lim resurslari bilan ishlashga, ularni qiyosiy tahlil qilishga hamda o‘qitishni takomillashtirish yuzasidan tegishli takliflar va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishga o‘rgatishdan iborat.

Talabalarda mavzuni o‘zlashtirishda, ularda davlat shakllari mavzusi bo‘yicha fundamental bilimlarni shakllantirish, davlat boshqaruv, tuzilishi, hamda siyosiy tartibotining xususiyatlari bo‘yicha bilim va ko‘nikmasini shakllantirish, muammoli vaziyatlarga nisbatan qonun hujjatlarini izlash va qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirish, mantiqiy va muammoli savollarga huquqiy asoslantirilgan javob berish, mustaqil ta’lim orqali talabalarga bilimlarni o‘zlashtirishga ko‘maklashish ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltiradi, shu bilan birga talabalarga davlat boshqaruv, tuzilishi, siyosiy rejimning xususiyatlari bo‘yicha tushunchalarini o‘qitishda, ularning o‘xhash va farqli jixatlarini tahlil qilishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarini qo‘llashda ifodalanadi.

Davlat shakliga, shuningdek, mamlakatning taraqqiyot darajasi, uning madaniyati mamlakatda tarkib topgan tarixiy an’analar, urf-odatlar ham ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, Angliyada davlat shakllari o‘rta asrlarda tarkib topgan bo‘lib, ular hozirgi kunga qadar hurmat qilinmoqda.

Ikkinci guruh olimlar davlat shakliga davlat boshqaruv shakli va davlat tuzilishi shakli kiradi deb, unga siyosiy rejimni qo‘shmaydilar. Yana bir toifa huquqshunoslar davlat shakli – davlat hokimiyatining tuzilishi shaklidir, deydilar. Shunday qilib, davlat shakli uch tushunchani: davlat boshqaruv shakli, davlat tuzilishi shakli va siyosiy rejimni o‘z ichiga oladi.

Boshqaruv shakli muhim konstitutsiyaviy-huquqiy institatlardan biri bo'lib, u davlat hokimiyatining oliv, markaziy va mahalliy organlarini shakllantirish tartibini, shu jumladan, davlat boshlig'i, parlament va hukumatning o'zaro va xalq bilan munosabatlarini o'z ichiga oladi. Konstitutsiyaviy huquqda davlat shakllari an'anaviy ravishda ikkiga bo'linadi: monarxiya va respublika.

Ma'lumki, har qanday davlat muayyan hududda joylashgan. Uning fuqarolari ham xuddi shu hududda istiqomat qilishadi. Davlat tuzulish shakli:

- unitar; oddiy, yaxlit davlat.
- federativ, murakkab, ittifoqdosh davlat.
- konfederativ; ma'lum bir maqsad yo'lida birlashgan davlatlar ittifoqi.

Masalan, **AQSH, GFR, RF, Braziliya, Hindiston** davlatlari – federativdir.

Shveysariya (1848 yilgacha), **Yevropa Ittifoqi** – konfederativ.

O'zbekiston – unitar davlat.

Boshqaruv shakli singari hududiy tuzilish ildizlari ham juda qadim zamonlarga borib taqaladi. Qadimgi Sharq despotik imperiyalariyoq viloyatlar, shaharlar, satrapiyalar, zabit etilgan hududlarga bo'lingan. Ular o'z hududiy tuzilmalari hamda o'z hokimiyat va boshqaruv organlariga ega bo'lishgan. Albatta, davlat o'z hududiy tuzilmalarining oddiy yigandisidan iborat emas. Lekin bu tuzilmarsiz davlat mavjud bo'la olmaydi. Davlatshunos olimlar tomonidan davlat tuzilishi tushunchasiga ko'plab ta'riflar berilgan. Ammo ular bir-birlaridan unchalik katta farq qilmaydi. Ularning qariyb barchasi davlat tuzilishi shakli deganda davlat hokimiyatining ma'muriy-hududiy tashkil etilishi, davlat bilan uni tashkil etuvchi qismlar o'rtasidagi, davlatning alohida qismlari o'rtasidagi, markaziy va mahalliy organlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar xarakterini tushunish kerak, deb hisoblashadi. Tuzilish tarkibiga ko'ra davlatlar oddiy - unitar hamda murakkab federativ va konfederativ davlatlarga bo'linadi. Davlat tuzilishi shakli nafaqat ommaviy hokimiyat bilan, balki davlatning yana bir muhim xususiyati aholining hududiy tashkiloti bilan ham chambarchas bog'liqdir.

Siyosiy rejim – davlat hokimiyatini amalga oshirishda foydalaniladigan tartib va usullar yig‘indisi. Davlat hokimiyati har bir mamlakatda o‘ziga xos xususiyatga ega, shu bois siyosiy rejim ham turlicha qaror topadi va namoyon bo‘ladi. Muayyan davlatning siyosiy rejimi mohiyati va mazmuni o‘ziga xos mezonlar, ya’ni, davlat hokimiyatining aholi bilan munosabati qaysi yo‘llar va qanday usullar orqali amalga oshirilishi, siyosiy sohada turli kuchlarning o‘zaro munosabatlari, jamoat tashkilotlarining jamiyat siyosiy tizimidagi mavqeい qay darajadaligi bilan belgilanadi. Shuningdek, davlat o‘z hokimiyatini amalga oshirish jarayonida aholining manfatlari uchun xizmat qilishiga qarab siyosiy rejim nodemokratik va demokratik turlarga bo‘linadi. Har qanday boshqaruv shaklini birdek baholash mumkin emas. Albatta, respublikalar, umuman olganda, monarxiyaga qaraganda boshqaruvning ilg‘or shaklidir. Ayni paytda shunday vaziyatlar ham vujudga kelishi mumkinki, unda monarxiya u yoki bu jamiyatni barqarorlashtirishi mumkin bo‘ladi. O‘z navbatida, boshqaruvning respublika shakli monarxiya sulolalarini o‘rnatishga debocha bo‘lishi ham mumkin. Chunonchi, respublika shaklidagi davlatlarda totalitar tuzum sharoitlarida boshqaruvning monarxiya shakli belgilari namoyon bo‘lishi mumkin. Masalan, davlat boshlig‘i (Indoneziyada Sukarno, Yugoslaviyada I. B. Tito)ning almashmay qolishi hollarini eslang. Bu ham yetmaganday, Markaziy Afrika Respublikasining bir umrlik prezidenti Bokassa imperator ham bo‘lib olgandi va hokazo.

Jamiyat hayotini demokratlashtirish jarayonini yanada chuqurlashtirish, uning izchilligi va samaradorligini ta’minlash – mamlakatimizda amalga oshirilayotgan siyosiy islohotlarning eng asosiy yo‘nalishi bo‘lib qoldi. Bunda, avvalo, mamlakatimiz siyosiy hayotining barcha sohalarini, davlat va jamiyat qurilishini erkinlashtirish, aholining siyosiy faolligini oshirish, unda milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan siyosiy madaniyatni shakllantirish va albatta jamiyatga munosib kadrlarni tayyorlash, ularni o‘qitishda ilg‘or, zamonaviy pedagogik texnologiyalarini qo‘llash muhim hisoblanadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – 40 b.
2. Axmedshayeva M., Davlat mexanizmi va hokimiyatlar bo'linishi. O'quv qo'llanma. -T.: TDYUI, 2005 – 66 b.
3. Saidov A., Tojixonov U. Davlat va huquq nazariyasi. I-jild. Davlat nazariyasi. -T.: Adolat, 2001. –336 b.
7. Islomov Z.M. Davlat va huquq nazariyasi. – Toshkent: Adolat, 2007. –916 b.
4. Saburov N. Davlat va huquq nazariyasi. O'quv-uslubiy qo'llanma. -T.: TDYI, 2008. –108 b.
5. Odilqoriyev X.T., Tultyev I.T. va boshq. Davlat va huquq nazariyasi: Darslik / Prof.X.T.Odilqoriyev tahriri ostida. –T.: Sharq, 2009. –592
6. <http://www.tsul.uz>
7. <http://www.norma.uz>

